

**XORIJIY TILNI TAHLILIIY O'RGANISH KO'NIKMALARINI INTERFAOL
USLUBLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH (INGLIZ TILI MISOLIDA)**

Xamdamova Nasiba Boxodir qizi¹

¹ Osiyo Xalqaro Universiteti MM9 PP 23

2-bosqich magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI:**

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.12.2024

Revised: 26.12.2024

Accepted: 27.12.2024

ANNOTATSIYA:

An'anaviy o'qitish usullari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlamaydi va mustaqil fikrlashni rivojlanirmaydi. Natijada, o'quvchilar tilni chuqur tushunish va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lmasligi mumkin. Interfaol usullar yordamida ingliz tilini tahliliy o'rganish ko'nikmalarini rivojlanirishning samarali usullarini aniqlash va ularning ta'sirini baholash mumkin. Maqolada eksperimental guruh va nazorat guruhi bilan ishlash, so'rovnomalar, kuzatuqlar va o'quvchilarning test natijalarini taqqoslash usullari qo'llaniladi. Turli interfaol usullarni qo'llash va ularning ta'sirini baholash orqali tadqiqot olib boriladi.

KALIT SO'ZLAR:

Interfaol metod, matn tahlili, grammatik tahlil, lug'aviy tahlil, mustaqil o'rganish, guruhdagi ishlash, muloqot, interaktiv o'yinlar, multimedia resurslari, pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari, samaradorlik, baholash.

KIRISH. Xorijiy tilni tahliliy o'rganish ko'nikmalarini interfaol uslublar orqali rivojlanirish, ayniqsa ingliz tili kabi keng tarqalgan tillarni o'rganishda, juda muhimdir. Interfaol usullar o'quvchini faol ishtirokchi qilib, uning mustaqil fikrlashini, muammolarni hal qilishini va tilni chuqurroq tushunishini ta'minlaydi. Quyida ingliz tili misolida interfaol usullar orqali tahliliy o'rganish ko'nikmalarini rivojlanirishning ba'zi yo'llari keltirilgan.

Yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, yoshlarda chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori darajaga ko'tarilib bordi. Mamlakatimiz ertangi kuni va istiqbolini hozirgi yosh avlodni munosib qilib voyaga yetkazish ta'lim sohasini, ayniqsa chet tillarini o'rganishga bo'lgan talabni zamonaviy tarzda to'xtovsiz takomillashtirib borish bilan

bog'liq. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab kelayotgan davlatimiz xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal o'rgatila boshlagani hech kimga sir emas. [1]

Interfaol metod – ta'lism jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahsmunozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va foydalanish imkoniyati, maruzalar soni kamligi, lekin seminarlar ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishiga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sind jamoasi bo'lib ishslash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'limtarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. [2]

Boshlang'ich ta'limdagi bolalarga chet tilini o'rgatish tizimining yo'lga qo'yilganligi zamonaviy ta'lim xizmatlaridan foydalanish va yoshlarni kelajagi porloq insonlar bo'lishga sababchi bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror bo'yicha chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'rganishda o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida darslarni interfaol usullar orqali, undan yuqori sinflarda buni bosqichmabosqich o'tib borish boshlandi. Shu yuzasidan chet tillarini yanada rivojlantirishda bir qator ko'lamli ishlar amalga oshirishga kirishildi. Hozirgi vaqtida o'quvchilarning idrok qilish faoliyatini, dunyoqarashi va fikrlashini rivojlantirish boshlang'ich ta'lim davrlaridanoq yo'lga qo'yildi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi zamonaviy metodlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida katta tajribani zimmasiga oluvchi interfaol metodlardan qo'llanilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan interfaol ta'lim metodlarini yoshlarda ilm-fan borasida oliy darajadagi sifatli bilim berishni amalga oshirish uchun munosib tarzda tanlash zarur. Chunki interfaol usullarni ta'lim standartlariga muvofiq tarzda qo'llansa, albatta, ulkan zafarlarga erishiladi. O'quvchilarga ta'limning ilk bosqichlaridanoq interaktiv usullar orqali dars jarayonlarini amalga oshirishda ta'lim oluvchilarda markazda bo'lish "imkoniyati" kengayadi. Birinchidan, o'quvchi ta'lim darajasi yuqori bo'lgan maskanda bilim oladi. Ikkinchidan, unga dars jarayonida erishib borayotgan yutuqlari uchun rag'batlantiriladi. Rag'bat esa bola ta'lim-tarbiyasi uchun eng muhim rol o'ynaydi. Uchinchidan, uning mas'uliyatini oshiradi va har jahhada tashabbuskorlikni qo'lga olishga undaydi. [1]

1. Matn tahlili:

- Jamoaviy ish: O'quvchilarga matnni guruhlarda o'qib, asosiy g'oyalarni, muallifning fikrini, til vositalarini va matn tuzilishini muhokama qilish vazifasi beriladi. Har bir guruh o'z tahlillarini taqdim etadi va boshqa guruhlar bilan muhokama qiladi.
- Savol-javob: O'qituvchi matn bo'yicha ochiq savollar beradi, bu o'quvchilarining chuqur fikrlashini va matnni turli nuqtai nazardan tahlil qilishini rag'batlantiradi.
- "Jigsaw" (Mozaika) usuli: Matn bir necha qismga bo'linadi va har bir guruhga bir qism beriladi. Guruhlar o'z qismlarini tahlil qilib, keyinchalik butun matnni birlashtiradilar.
- Matnni qayta yozish: O'quvchilarga matnni boshqa uslubda, boshqa auditoriyaga moslashtirib qayta yozish vazifasi beriladi.

2. Grammatik tahlil:

- Grammatik o'yinlar: Grammatik qoidalarni o'rganishni o'yinlar orqali qiziqarli qilish. Masalan, gap tuzish, so'zlarni to'g'ri qo'yish, gaplarni tuzatish va h.k.
- Xatolarni topish: O'quvchilarga grammatik xatolar bilan to'ldirilgan matn beriladi va ular xatolarni topib, tuzatadilar.
- Grammatik struktura tahlili: Murakkab gaplarning tuzilishini tahlil qilish, ularning tarkibiy qismlarini aniqlash va ularning funksiyalarini tushunish.

3. Lug'aviy tahlil:

- So'zlarning sinonim va antonimlarini topish: So'zlarning ma'nolarini chuqurroq tushunish uchun sinonim va antonimlarni topish va ularning farqlarini tushuntirish.
- So'zlarning kelib chiqishini o'rganish (Etimologiya): So'zlarning tarixi va kelib chiqishini o'rganish orqali ularning ma'nolarini yanada yaxshiroq tushunish.
- So'zlarning kontekstdagi ma'nolarini aniqlash: So'zlarning ma'nosи ularning qaysi kontekstdagi ishlatalishiga bog'liq ekanligini ko'rsatib, o'quvchilarini kontekstni tahlil qilishga o'rgatish.

4. Audio va video materiallar tahlili:

- Tinglash va tushunish: Audio va video materiallarni tinglash va asosiy g'oyalarni, so'zlashuv uslubini va nutqning xususiyatlarini aniqlash.
- Suhbatlarni tahlil qilish: Suhbatlarni tinglash va suhbatdoshlarning his-tuyg'ularini, niyatlarini va ularning o'zaro munosabatlarini tahlil qilish.

Interfaol usullarni samarali qo'llash uchun:

- O'quvchilarini faol ishtiroy etishga rag'batlantirish;
- Muloqot va hamkorlik muhitini yaratish;
- O'quvchilarining individual ehtiyojlarini inobatga olish;

-
- O'rganilgan bilimlarni amalda qo'llashga imkoniyat yaratish.

Biz bilamizki, hozirgi ta`lim jarayonida o`quvchi sub`ekt bo`lishi lozim. Bunda Ko`proq interfaol metodlarga e`tiborni qaratish ta`lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo`yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o`rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o`qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o`qib beriladi qanday yakun topishi o`quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

"Quvnoq topishmoqlar" (*Merry Riddles*) o`quvchilarga topishmoqlar o`rgatish Ingliz tilini o,,rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o,,zlariga notanish bo`lgan So`zlarni o`rganadilar va o`ylab topishmoq javobini topadilar;

"Tezkor javob" (*Quick answers*) o`tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; .

"Chigil yozdi" ("Warm-up exercises") o`quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o`yinlardan foydalanish;

"Pantomima" (*pantomime*) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak Bo`lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo`ladi;

"Hikoya zanjiri" (*a chain story*) usuli o`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirishda yordam beradi;

"Rolli o,,yinlar" (*Acting characters*) bu usul darsning barcha tiplarida qo`llanilishi mumkin.

Hunarga o`rgatish uchun "Interpreter", "Translator", "Writer", "Poet" kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirot etishib o`quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

"Allomalar yig`ini" (*Thinkers meeting*) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni "taklif qilish" mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so,,zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo`lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

"Rasmlar so`zlaganda" (*When pictures speak*) usuli ancha qulay bo`lib, ingliz tilini o`rgatishda, talaba, o`quvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

Kviz kartochkalari (*quiz cards*) o`quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirot etish imkonini beradi bu

esa vaqtini tejaydi.[3]

O‘qituvchining vazifasi har bir talaba uchun tilni amaliy o‘zlashtirish uchun sharoit yaratish, har bir o‘quvchiga o‘z faolligini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan shunday o‘qitish usullarini tanlashdir. O‘qituvchining vazifasi chet tillarini o‘qitish jarayonida talabaning bilish faoliyatini faollashtirishdir. Hamkorlikda o‘rganish, loyiha metodikasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internetresurslar kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonida shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni amalgalashirishga yordam beradi, bolalarning qobiliyatlari, ularning o‘rganish darajasini hisobga olgan holda o‘qitishning individualizatsiyasi va farqlanishini ta’minlaydi. Chet tili darslarida kompyuterni o‘qitish dasturlari bilan ishlash shakllariga quyidagilar kiradi: so‘z boyligini o‘rganish; talaffuz qilishni mashq qilish; dialogik va monologik nutqni o‘rgatish; yozishni o‘rgatish; grammatik hodisalarini ishlab chiqish.

Internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Global Internet dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan talabalar va o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan har qanday ma’lumotni olish uchun sharoit yaratadi: mintaqaviy geografik

materiallar, yoshlar hayotidagi yangiliklar, gazeta va jurnallardan maqolalar va boshqalar.

Darslarda ingliz tilida Internet yordamida bir qator didaktik muammolarni hal qilish mumkin: global tarmoq materiallaridan foydalanib o‘qish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; mifik o‘quvchilarining yozish qobiliyatini oshirish; talabalarning so‘z boyligini to‘ldirish; talabalarning ingliz tilini o‘rganish motivatsiyasini shakllantirish. Bundan tashqari, bu ish mifik o‘quvchilarining ufqini kengaytirish, ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda tengdoshlari bilan ishbilarmonlik munosabatlari va aloqalarini o‘rnatish va qo’llab-quvvatlash uchun Internet-texnologiyalar imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Talabalar Internetda o‘tkaziladigan testlar, viktorinalar, tanlovlardan olimpiadalarda ishtiroy etishlari, boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan yozishmalar, suhabatlar, videokonferensiyalar va h.k.larda qatnashishlari mumkin. [4]

Ta’kidlab o’tish joizki, o‘quvchilarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish yurtimizda qadimdan rivojlanib kelgan. Turli she’rxonlik kechalarida, bahs-munozaralarda ham shu kabi uslublarni ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan. Bu usullar talabalarning tafakkur, zehn, mulohaza, iste’dod va nutqlarini rivojlantirish orqali ularni o‘z mustaqil fikriga ega, barkamol hamda komil inson bo’lib shakllanishiga xizmat qilib kelmoqda.

Ko'riniб turibdiki, interfaol usulning eng asosiy maqsadi o'quv jarayonlarida ta'lim sifatini oshirishga qulay sharoit yaratish orqali o'quvchining faol fikr yuritishiga erkin atmosfera yaratishdir. U o'zining potensialidagi imkoniyatlarini va aqliy salohiyatini namoyon etadi va o'quv samaradorligi va sifatini oshirishga yordam beradi. Interfaollik asosida darslar shunday tashkil etiladiki, dars jarayonida hech bir o'quvchi chetda qolmaydi. Har biri o'zining o'yagan fikrlarini, bilimlarini ochiq-oydin, tortinmasdan bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki interfaol usullarda asosiy e'tibor faqatgina o'qitish, bilim berishga emas, balki ularning fikrlari to'g'ri yoki noto'g'riliidan qat'i nazar fikrlashga undashga, darsga jalb qilishga qaratilgan. Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressive usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. [5]

Xulosa.Ushbu interfaol usullarni muntazam ravishda qo'llash orqali o'quvchilarning ingliz tili sohasida tahliliy o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa ularning tilni chuqurroq tushunishiga, mustaqil fikrlash qobiliyatining o'sishiga va tilni erkin qo'llashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Suvankulov Baxtiyor Mamarasulovich. (2024). O'QUVCHILARGA XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USULLAR ORQALI O'RGATISH. Proceedings of International Educators Conference, 3(5), 196–199. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/iec/article/view/4781> Issue Vol. 3 No. 5 (2024): IEC Section
- [2] Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent – 2012 yil
- [3] XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI Quchqorova Shahodat Ro'ziyevna
- [4] Xalikova Latofat Uktamovna , Shakirova Saida Tuxtajanovna INGLIZ TILINI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(1/2), Jan., 2023. 186 b
- [5] O'. Hoshimov, I. Yoqubov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003 Муминова, Ф. М. Муминова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2020. – № 18 (308). – С. 590-592. – URL: <https://moluch.ru/archive/308/69404/> (дата обращения: 20.01.2022).